



FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA ULARNING HUQUQIY MAQOMLARI

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Yurisprudensiya:

Biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasi, uning asosiy institutlari va mazkur institutlarning huquqiy maqomi chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining jamiyatlardagi o'rnini, davlat bilan munosabatlari hamda fuqarolarning faolligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar, davlat siyosatining yo'nalishlari va amaliy mexanizmlar ko'rib chiqiladi. Xulosa qismida fuqarolik jamiyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, huquqiy maqom, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, O'zbekiston qonunchiligi, huquqiy asos, ijtimoiy nazorat.

Kirish. Fuqarolik jamiyati- demokratik tuzumning ajralmas qismi bo'lib, unda jamiyat a'zolari davlatdan mustaqil ravishda o'zlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy manfaatlarini ifoda etadilar va ularni himoya qiladilar. Bunday jamiyat oddiy jamiyatlardan tubdan farq qilib, eng avvalo, huquqiy muhit, erkinliklar kafolati va fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati –komil [fuqarolardan](#), ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy



madaniyatga tayanadigan [huquqiy](#) va [siyosiy](#) madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar [Aristotelning](#) „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta‘minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishiga alohida e‘tibor beriladi. Bu g‘oyalar XXI asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, [T.Gobbs](#) asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e‘lon qilinishi bilan esa fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a‘zolari – „fuqarolar“ tushunchasi paydo bo‘ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. [Kant](#), [Russo](#), [Gegel](#), [Popper](#) ilgari surgan fikrlar fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.¹ Xuddi shunday fuqarolik jamiyati o‘zining rivojlanishida ko‘plab tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan va bugungi kunda fuqarolik jamiyatiga ta‘rif beradigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati deganda, odatda davlatdan mustaqil holda faoliyat yuritadigan, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etuvchi va ularni himoya qiluvchi tashkilotlar tizimi tushuniladi. Ushbu tizimni fuqarolik jamiyati institutlari tashkil qiladi. Ya‘ni fuqarolik jamiyati – bu nazariy tushuncha bo‘lsa, uning amaliy ifodasi aynan shu institutlar orqali amalga oshadi. Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.²

O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.³ Ushbu birlashmalar fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda ijtimoiy huquqlari hamda erkinliklarini himoya qilish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning faol ishtirokini ta'minlash va boshqa maqsadlarda tashkil etiladi.

Xuddi shunday fuqarolik jamiyati institutlaridan yana biri hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlar ham bugungi kunda muhim bo'g'inlardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlar yuridik shaxs maqomida faoliyat yuritib, cheklanmagan muddatga faoliyat yuritish huquqiga ega. Yuridik shaxs husoblanganligi sababli nodavlat notijorat tashkilotlar o'zlarining ramziy belgilarini ta'sis etish, ommaviy axborot vositalarini tashkil etish hamda o'z vakolatxonalari va filiallarini tashkil etishlari mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.⁴

Bundan tashqari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini ham fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan,

³ O'zbekiston Respublikasi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni



rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (fuqarolar vakillarining yig'ilishlari) orqali amalga oshiradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan [tartibda](#) hisobga olinishi lozim.⁵

O'zbekiston Respublikasi esa mustaqillikka erishgach, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari mustaqil, huquqiy davlatlarning muhim belgilaridan hisoblanadi. Ayni paytda bu institutlar qonuniy asosda faoliyat yuritib, davlat va jamiyat o'rtasidagi "ko'prik" rolini o'ynayapti. Ushbu ko'prik faoliyatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turli xil qonun hujjatlari ioshlab chiqarilmoqda. Xususan, "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan. Unda konsepsiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida quyidagilar belgilangan:

fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;

fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni



davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash.⁶

Fuqarolik jamiyati institutlari har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish, ularni himoya qilish va davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu institutlarning qonuniy asosda faoliyat yuritishi ularning samaradorligi va mustahkamligi uchun zarurdir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy baza shakllangan bo'lib, davlat ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilmoqda. Biroq ularning huquqiy maqomini yanada mustahkamlash, faoliyatini soddalashtirish va fuqarolarning ishtirokini kengaytirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish zarur.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati institutlari kuchli va faol bo'lgan jamiyatda erkinlik, adolat va qonun ustuvorligi ta'minlanadi. Shu bois bu institutlarni rivojlantirish – jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni
6. <https://lex.uz/docs/-5319756>

⁶ <https://lex.uz/docs/-5319756>